

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**



**XIRURGIK STOMATOLOGIYA
FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 900000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi: 910000 – Sog‘liqni saqlash
Ta’lim yo’nalishi: 60910100- Stomatologiya

Andijon - 2025 yil

Fan/modul kodi XS15679		O'quv yili 2025-2026 2026-2027	Semestr 5-6-7	Kreditlar 9	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 3/3/3	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Xirurgik stomatologiya	135		135	270
2.	<p>I. Fanning mazmuni.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – Xirurgik stomatologiya fanini o'qitishdan maqsad - talabalarda nazariy va amaliy bilimlari orqali boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, og'iz bo'shlig'i a'zolarida uchraydigan turli kasalliklarga belgilangan ambulator xirurgik stomatologik yordam ko'rsata oladigan hamda xirurgik kasalliklar asoratlarini oldini olish tadbirlarini o'tkaza oladigan umumiy amaliyot shifokor-stomatologini tayyorlashdir. Olgan bilim va ko'nikmalarni tibbiyotda qo'llay bilishlari uchun asosiy bilim berish, og'iz bo'shlig'i holatini tekshirish usullarini va mustaqil ravishda birinchi tibbiy yordam ko'rsata oladigan umumiy amaliyot stomatologini tayyorlash.</p> <p>Fanning vazifasi – Xirurgik stomatologiya fani haqida tushuncha berish, talabalarning nazariy ma'lumotidan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni bajarish darajasiga qadamma-qadam o'rgatish, – zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiriq etib, talabani klinik fikrlash va bilimini saqlash darajasini oshirish, – zamonaviy tekshirish usullari haqida tushunchaga ega bo'lish, – xirurgik stomatologiya poliklinikasida xirurg – stomatolog ish o'rni va vazifalarini o'rganish, – xirurgik stomatologik yordamini tashkil qilish, xirurgik stomatologik tezkor yordamni tashkil qilish, xirurgik kasalliklar asoratlarini profilaktikasini o'rgatish, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mazular kiradi:</p> <p style="text-align: center;"><i>VI semestr</i></p> <p>1-мaB3y. Xirurgik stomatologiya: Uni boshqa tibbiyot sohalari bilan bog'liqligi. O'zbekistonda xirurgik stomatologiyaning rivojlanish tarixi va unga hissa qo'shgan olimlar. Ambulator va statsionar xirurgik stomatologik yordamni tashkil qilish. Xirurgik stomatologiyada ishlatiladigan asbob uskunalar va xom ashyolar.</p>				

2-мавзу. Xirurgik stomatologiyada aseptika va antiseptika qoidalari. Stomatologik bo'limlar va kabinetlarda dezinfeksiya va sterilizatsiyani tashkil qilishga talablar. Bemor va shifokorni infeksiyadan himoyalash. Davlat va nodavlat stomatologik klinikalarda sterilizatsiyaga qo'yiladigan talablar.

3-мавзу. Og'riqsizlantirish. Umumiy og'riqsizlantirish, narkoz. Uning turlari. Ambulator va statsionar sharoitda narkoz o'tkazishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Endotraxeal narkozning o'ziga xos xususiyatlari. Ingalyasion va noingalyasion narkozda ishlatiladigan farmakologik dori vositalari. YUrak-o'pka reanimatsiyasi asoslari.

4-мавзу. Stomatologiyada og'riqsizlantirish. Uch shoxli nervning harakatlantiruvchi va sezuvchi tolalari. Uch shoxli nervy o'nalishida hosil qiluvchi tugunlar. Ularni og'riqsizlantirishda ahamiyati. Uch shoxli nervning ikkinchi va uchinchi shoxining innervatsiya sohalari.

5-мавзу. Mahalliy og'riqsizlantirish. Mahalliy og'riqsizlantirishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Mahalliy og'riqsizlantirish turlari va mahalliy og'riqsizlantirishda ishlatiladigan anestetiklar, ularni ta'sir mexanizmi. Markaziy og'riqsizlantirish. Hujayra neyrofiziologiyasi.

6-мавзу. Kuchaytirilgan mahalliy og'riqsizlantirish, mahalliy anestetiklarni ta'sirini uzaytiruvchi preparatlar. Vazokonstriktorlar farmakologiyasi, qo'llanilishi. Hamroh kasalliklari bor bemorlarda kuchaytirilgan mahalliy og'riqsizlantirish va operatsiyaga tayyorlash.

7-мавзу. Tish olish operatsiyasi. Tish olishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Yuqori va pastki jag'larda tish olish xususiyatlari va tamoyillari. Yuqori va pastki jag'da ombur va elevatorlar bilan tish olish biomexanikasi. Tish va tish ildizlarini olishda erta va kechki asoratlar va ularni bartaraf etish usullari.

VII semestr

1-мавзу. Tish olish. Tish olish uchun asbob va uskunalar.

2-мавзу. Mandibulyar og'riqsizlantirishni og'iz tashqi usuli.

3-мавзу. Bemorda yuqorigi jag' frontal guruh tishlarini olish texnikasi.

4-мавзу. Bemorda yuqorigi jag' katta va kichik oziq tishlarini olish texnikasi.

5-мавзу. Bemorda pastki jag' frontal guruh tishlarini olish texnikasi.

6-мавзу. Bemorda pastki jag' katta va kichik oziq tishlarini olish texnikasi.

7-мавзу. Yuqori va pastki jag' tish ildizlarini olish texnikasi.

8-мавзу. Yuqori va pastki jag' tishlari va ildizlarini bor mashina va doloto yordamida olish texnikasi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari rejasi

VI- semestr

1. Xirurgik stomatologik xonani tashkillashtirish va tarkibi. Xirurgik stomatologiyabo'limda foydalaniladigan asboblari.
2. Xirurg stomatolog yordamiga muhtoj bo'lgan bemorni tekshirish va qo'shimcha tekshirish usullari. Kasallik tarixini to'ldirish - forma №043/U.
3. Infiltratsion og'riqsizlantirish usuli.
4. Infraorbital og'riqsizlantirishning og'iz ichi va tashqi usuli.
5. Tuberal og'riqsizlantirishning og'iz ichi va tashqi Egorov va Vaysblat usuli.
6. Palatinal og'riqsizlantirish.
7. Insizival og'riqsizlantirishning og'iz ichi va tashqi usuli.
8. Mandibulyar og'riqsizlantirish.
9. Mandibulyar og'riqsizlantirishni og'iz tashqi usuli.
10. Pastki alveolyar nervni og'riqsizlantirish.
11. Torusal og'riqsizlantirishning og'iz ichi usuli.
12. Mental og'riqsizlantirishning og'iz ichi va tashqi usuli.
13. Anestetiklar ta'sirini uzaytirish xususiyatiga ega bo'lgan preparatlarni qo'llash.
14. Mahalliy va markaziy og'riqsizlantirishda kuzatilishi mumkin bo'lgan umumiy asoratlari.
15. Bemorda anafilaktik shok klinik belgilari. O'pka yurak reanimatsiyasi.

VII semestr

1. Tish olish. Tish olish uchun asbob va uskunalari.
2. Bemorda yuqorigi jag' frontal guruh tishlarini olish texnikasi.
3. Bemorda yuqorigi jag' katta va kichik oziq tishlarini olish texnikasi.
4. Bemorda pastki jag' frontal guruh tishlarini olish texnikasi.
5. Bemorda pastki jag' katta va kichik oziq tishlarini olish texnikasi.
6. YUqori va pastki jag' tish ildizlarini olish texnikasi.
7. YUqori va pastki jag' tishlari va ildizlarini bor mashina va doloto yordamida olish texnikasi.
8. Yuqori jag' tishlari olingandan keying bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlari.
9. Pastki jag' tishlari olingandan keying bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlari
10. Yuqori va pastki jag' 8-tishlari qiyin chiqishi sabablari.
11. Periodontitlarni tish saqlovchi operatsiyalar usulida davolash (tish replantatsiyasi, ildiz uchi rezeksiyasi, tish ildizi amputatsiyasi, tish gemiseksiyasi).

12. Periodontitlarni tish saklovchi operatsiyalar usulida davolash (tish replantatsiyasi, ildiz uchi rezeksiyasi, tish ildizi amputatsiyasi, tish gemiseksiyasi).
13. Ogiz bo'shlig'i yiringli jarayonlari: Pereostit, tanglay absessi, til osti soxasi absse
14. Ogiz bo'shlig'ini protezlashga tayyorlash.

Fan bo'yicha mashg'ulotlar 50% nazariy (ma'ruza va amaliy mashg'ulot) va 50% amaliy qism (o'quv klinik amaliyot)dan iborat bo'lgan holda olib boriladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari rejasi.

Amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

1. Infiltratsion og'riqsizlantirishni bemorda (volonterda) bajarish
2. Infraorbital og'riqsizlantirishni fantomda va volonterda og'iz ichi va og'iz tashqari usulida bajarish.
3. Palatinal og'riqsizlantirishni fantomda va volonterda bajarish
4. Tuberal og'riqsizlantirishni fantomda va volonterda bajarish
5. Insizival og'riqsizlantirishni fantomda va volonterda bajarish
6. Mandibulyar og'riqsizlantirishni fantomda va volonterda og'iz ichi va og'iz tashqari usul bajarish
7. Torusal og'riqsizlantirishni fantomda va volonterda bajarish
8. Engak nervini og'riqsizlantirishni og'iz ichi va og'iz tashqari usulida fantomda va volonterda bajarish
9. YUqori jag' tishlarini olishda omburlarni tanlash
10. Pastki jag' tishlari va ildizlarini olishda omburlarni tanlash
11. Ildizlarni olishda elevatorlarni tanlash
12. YUqori jag'da alohida guruh tishlarini olish
13. Pastki jag'da alohida guruh tishlarini olish

Klinik o'quv amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich - mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan xolda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganish motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlarini muhokama qilinadi. Amaliy ko'nikmalarni

amalga oshirish uchun kerakli asbob anjomlar ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalari bilan talabalar tanishtiriladi.

2. Ikkinchi bosqich - amaliy ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam algoritmi pedagog tomonidan va videofilmlar orqali namoyish etiladi, algoritm asosida bosqichma bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Talaba amaliy ko'nikmani mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, talabalar o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida, keyin umumlashtirgan holda to'lik va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruxsat beriladi (imitatsion trening).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko'nikmalar qadamma-qadam va videofilmi, o'quv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va x.k., baxolash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mulyajlyar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob anjomlar bo'lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda pedagog nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'rilaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoyish etilishi, kritik muhokama qilinishi mumkin. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmanit o'g'ri o'zlashtirganligini baxolashda ishtirok etadilar. Amaliy ko'nikma avtomatizm darajasigacha yetkazilishi maqsadga muvofiq.

3. Uchinchi bosqich - o'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemorda qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli xil klinik holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni tahlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi.

Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalar va testlar, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi kasallik ambo'lator kartalar va x.k., ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baxolashda balki komandada ishlashda ishtirok etadilar .

4. To'rtinchi bosqich - xulosa. Bu bosqichda pedagog talaba tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlarda, turli xil vaziyatlarda, faoliyat

jarayonida to'g'ri va to'liq qo'llay olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirildi deb hisoblanadi.

To'rtinchi bosqichni amalga oshirish uchun talaba bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy xujjatlarni, kasallik tarixini yozib himoya qilganda baholanadi.

Mashg'ulot so'nggida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar.

V - semestr

1. O'zbekistonda stomatologiyani rivojlantirishga xissa qo'shgan olimlar.
2. Uch shoxlinervning birinchi, ikkinchi, uchinchi shoxlari tuzilishi va uning innervatsiya zonalarini.
3. Zamonaviy og'riqsizlantiruvchi dori vositalari va ularning xarakteristikasi.
4. Xirurgik stomatologiya poliklinikasida qo'llaniladigan og'riqsizlantirish usullari.
5. Mahalliy anestetiklarni ta'sirini uzaytiruvchi vositalarni tasiri va o'ziga xos xususiyatlari.
6. Mahalliy anesteziyada uchraydigan mahalliy asoratlari va ularni davolash prinsiplari.
7. YUqori va paski jag'da markaziy og'riqsizlantirish usullari.
8. Hamroh kasalliklari bor bemorlarda og'riqsizlantirish usulini tanlash.
9. Mahalliy og'riqsizlantirishda sodir bo'ladigan mahalliy asoratlari.
10. Hushdan ketish. Uning belgilari. Hushdan ketishda 1-yordam ko'rsatish.
11. Kollaps. Uning belgilari. Kollaps holatida 1-yordam ko'rsatish.
12. Anafilaktik shok. Klinikasi. Birinchi yordam.
13. Endotraxeal narkoz. Poliklinika sharoitida endotraxeal narkoz o'tkazish.
14. Endotraxeal narkoz o'tkazishga ko'rsatmalar (prezentatsiya).
15. Umumiy narkoz uchun ishlatiladigan zamonaviy dori vositalari.
16. Zamonaviy qon to'xtatuvchi umumiy medikamentoz dori vositalari.
17. Tishlarni bor mashina, doloto va elevatorlar bilan olish.
18. Tish saqlovchi operatsiyalarga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.
19. Replantatsiya, transplantatsiya. Ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.
20. Tish chiqish kasalliklarini zamonaviy rentgenologik tekshirish usullari.

	<p>21. Tish chiqishi kasalliklarida davolash taktikasini tanlash.</p> <p>22. Tish olishdan so‘nggi tish katagini bitishi etaplari va uni optimallashtirish.</p> <p>23. Og‘iz bo‘shlig‘ini protezga tayyorlash.</p>
3.	<p>V. Fan o‘qitilishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba</p> <p>Yukorigi jagning anatomik tuzilishi: Yukorigi jag‘ning 4 ta o‘sig‘i.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yukorigi jag‘ bo‘shlig‘ini anatomik tuzilishiga kura turlari. - Yukorigi jag‘da qaysi tishlar Gaymor bo‘shlig‘i tubiga yaqin joylashadi - Yukorigi jagning anatomik tuzilishi: Yukorigi jag‘da joylashgan teshiklar va kanallar? - Qattiq tanglay anatomiyasi. - Yuqorigi jag‘dagi kontraforslar? - Pastki jag‘ni anatomik tuzilishi. - Yuqorigi jag‘ alveolyar o‘sig‘i anatomik tuzilishi. - Yuqorigi jag‘ alveolyar o‘sig‘i atrofiyalari turlari. - Alveolyar o‘siq atrofiyasi tushunchasi va uni kelib chiqishi. - Yuqori jag‘da dental implantatsiyaga ko‘rsatmalar. - Pastki jag‘ kanalini tishlarga nisbatan joylashishi. - Pastki jag‘dagi kontraforslar? - Yukorigi jag‘da dental implantatsiya o‘tkazishga ko‘rsatmalar. - Pastki jag‘da alveolyar o‘siq atrofiyasi turlari. - ko‘rik asbob-uskunalarini farqlash va texnika xavfsizligiga rioya qilish xaqida tasavvurga ega bo‘lishi; - og‘iz a‘zolarini, tishlar qatorini ko‘rigini o‘tkazishni; - Dental implantologiya fani va uning mazmuni. <p>Bemorlarni dental implantatsiyaga tayyorlash.</p> <p>Dental implantatsiyada zamonaviy tekshirish usullari.</p> <p>Dental implantatlar tasnifi.</p> <p>Yuqorigi va pastki jag‘ to‘liq va qisman adentiyasi va atrofiyalari klassifikatsiyasi.</p> <p>Yuqori jag‘ anatomiyasi. Yuqori jag‘da adentiya va alveolyar o‘siqlar atrofiyasini klassifikatsiyalari.</p> <p>Yuqori jag‘da dental implantatsiyani o‘ziga xos xususiyatlari.</p> <p>Pastki jag‘ anatomiyasi.</p> <p>Pastki jag‘da adentiya va alveolyar o‘siqlar atrofiyasining klassifikatsiyasi.</p> <p>Pastki jag‘da dental implantatsiyani o‘ziga xos xususiyatlari</p>

	amaliy ko‘nikmalariga(<i>shu jumladan klinik amaliy ko‘nikmalariga</i>) ega bo‘lishi kerak.																				
4.	<p>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ma’ruzalar; - Amaliy ishlarni bajarish va xulosalar; - Interfaol keys-stadilar; - Blis – so‘rov; - Guruhlarda ishlash; - Taqdimotlarni qilish; - Jamoa bo‘lib ishlash va ximoya qilish uchun loyihalar. 																				
5.	<p>VII. Kredit olish uchun talabalar:</p> <p>Og‘ish bo‘shlig‘i jarrohligi fani bo‘yicha baholash mezonlari haqidagi ma’lumot modul bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.</p> <p>Talabalarning modul bo‘yicha o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:</p> <p>joriy nazorat (JN); oraliq nazorat (ON) yakuniy naorat (YaN)</p> <p>Fan bo‘yicha talabaning semestr (o‘quv yili) davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi.</p> <table border="1" data-bbox="400 1339 1497 1736"> <thead> <tr> <th>№</th> <th>Baxolash turi</th> <th>Maksimal ball</th> <th>Kredit soni</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>1.</td> <td>Auditoriyadagi o‘quv mashg‘ulotlarni baxolash (JN)</td> <td>100</td> <td>9</td> </tr> <tr> <td>2.</td> <td>Oraliq nazorat (ON)</td> <td>100</td> <td>0</td> </tr> <tr> <td>3.</td> <td>Yakuniy nazorat (YaN)</td> <td>100</td> <td>0</td> </tr> <tr> <td></td> <td>JAMI</td> <td>100</td> <td>9</td> </tr> </tbody> </table> <p>Fanga ajratilgan 8 kreditni talaba JN davomida yig‘adi.</p> <p>JORIY NAZORAT (JN) JNda talabaning modul mavzulari bo‘yicha bilim, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko‘zda tutiladi. Klinik immunologiya va allergologiya moduli bo‘yicha JN og‘zaki, o‘rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma’lumotlarini</p>	№	Baxolash turi	Maksimal ball	Kredit soni	1.	Auditoriyadagi o‘quv mashg‘ulotlarni baxolash (JN)	100	9	2.	Oraliq nazorat (ON)	100	0	3.	Yakuniy nazorat (YaN)	100	0		JAMI	100	9
№	Baxolash turi	Maksimal ball	Kredit soni																		
1.	Auditoriyadagi o‘quv mashg‘ulotlarni baxolash (JN)	100	9																		
2.	Oraliq nazorat (ON)	100	0																		
3.	Yakuniy nazorat (YaN)	100	0																		
	JAMI	100	9																		

o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi. Talabalar fan bo'yicha 100 ballik tizimda baxolanadi. Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart va o'qituvchi tomonidan talabaning JN og'zaki so'rov shaklidan olgan bali shu kuni o'zida platformaga qo'yiladi.

Oraliq nazoratni o'tkazish

Fan bo'yicha ON semestr o'rtasida bir marta o'tkaziladi. ONga JN bo'yicha tegishli kreditlarni to'plagan talaba kiritiladi. ON turi kafedra majlisining qarori bilan belgilanadi.

ONda saralash bali (55ball) yig'a olmagan talaba yakuniy nazoratga qo'yilmaydi. Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi va oraliq nazorat qayta o'tkaziladi. Oraliq nazorat ogzaki, yozma OSKE va test nazorat xolatda o'tkaziladi.

Ta'lim oluvchi modul bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkazilgan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishi shart. Ta'lim oluvchi uzrli sabablarga ko'ra oraliq nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu ta'lim oluvchi tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruhsat beriladi.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha qoniqarsiz baho olgan ta'lim oluvchi yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Oraliq nazorat o'tkazish belgilangan muddatda modul bo'yicha oraliq nazoratga qo'yilmagan va qoniqarsiz baho olgan ta'lim oluvchi, akademik qarzdor hisoblanadi, unga yangi semestr boshida bir oy davomida akademik qarzdorlikni bartaraf etish uchun qayta topshirishga ruxsat beriladi.

YAKUNIY NAZORAT (YAN)

JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba YANga kiritiladi. YANda talabaning bilim, ko'nikma va malakalari modulning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YAN modul bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tugaganidan so'ng test markazida test (20%) kafedrada og'zaki (80%) OSKE shaklida

o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi. YANda saralash balini (55 ball) yig'a olmagan talaba YANDan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda kreditni to'liq yig'gan bo'lsa ham).

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi. Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Fan bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS Baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan	5	a'lo

			<p>to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
81-85	B	"juda yaxshi" - o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan</p>	4	yaxshi

			<p>to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standard vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ- huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
--	--	--	---	--	--

	71-80	C	<p>"yaxshi" - o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan</p>	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ- huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini ang'lay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p>		
--	-------	---	---	--	--	--

			<p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p>		
60-70	D	"qoni-qarli" - sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>	3	Qoni qarli

	55-59	E	<p>"o'рта" - minimal natijaga teng</p>	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
	31-54	FX	<p>"qoniqarsiz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlash-tirishi zarur</p>	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa;</p>	2	Qoni qarsiz

			amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlash-tirishi lozim	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		
6. Asosiy adabiyotlar					
1. Azimov M.I., Sodikova X.Q. va hammualliflar. Oral xirurgiya asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent. Ilm ziyo. 2019 y.					
2. Azimov M.I. YUZ-jag' kasalliklari va jarohatlari. Darslik. – Toshkent. Ilmziyo. 2019 y.					
3. Azimov M.I. Jarrohlik stomatologiya propedevtikasi. Darslik. Davlat milliynashriyoti. -Toshkent. 2009 u.					
Qo'shimcha adabiyotlar					
1. Gaffarov S.A., Jilonov A.A., Sadikova X.K.. Stomatologiya. O'quv qo'llanma. - Toshkent. Impress media. 2018 g.					
2. David A. Mitchell, Anastasios N. Kanatas. An Introduction to Oral and Maxillofacial surgery. Textbook. 2015 u.					
3. Neelima Anil Malik, Textbook of Oral and Maxillofacial Surgery. Second Edition © India. JPBMP Printed at Ajanta. 2008 u.					
4. Vyazmitina A.V., Usevich T.L. Xirurgicheskaya stomatologiya: Praktikum. Feniks. 2006 g.					
5. Robustova T.G. Xirurgicheskaya stomatologiya. Uchebnik. – Moskva.					

Meditsina. 2003 g.

6. Robustova T.G., Romacheva I.F, Karapetyan I.S. i dr. Xirurgicheskaya stomatologiya. Rukovodstvo. – Moskva. Meditsina. 2003 g.

7. SHargorodskiy A.G. Vospalitelnye zabolevaniya chelyustno-litsevoy i shei. Uchebnik. - Moskva. Meditsina. 2001 g.

8. Bezrukov V.M., Robustova T.G. Rukovodstvo po xirurgicheskoy stomatologii i chelyustno-litsevoy xirurgii. Tom 2. – Moskva. Meditsina. 2000 g.

9. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2017 y.

10. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston” nashriyot matbaaijodiy uyi. 2017 y.

11. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2016 y.

Kazan State University Meditsina fakulteti Stomatologiya fanidan ishchi o‘quv dasturi -2023 y

Internet saytlari

Germaniyaning “Lecturio GmbH” meditsina sayti

www.allsurgery.ru

<https://www.lecturio.de/artikel/medizin/cholezystektomie/>

<https://www.lecturio.de/artikel/medizin/appendizitis/>

<https://www.lecturio.de/artikel/medizin/akutes-abdomen/>

<https://www.lecturio.de/artikel/medizin/colitis-ulcerosa/>

<https://www.lecturio.de/artikel/medizin/hernien/>

<https://www.lecturio.de/artikel/medizin/megakolon/>

7. Fan dasturi Andijon davlat tibbiyot instituti OTM kengashining 2025 yil “_27_” avgustdagi “_1_”-sonli bayonnomasi bilan ma’qullandi.